

TEZ AYTISHLARNING LINGVOMADANIY SHARTLANISHI

Isaqova Elvina Dilaverovna

Termiz shahridagi Prezident maktabi

Annotatsiya. Mazkur maqolada tez aytilishlarning lingvomadaniy shartlanishi masalasi tadqiq etiladi. Tez aytilishlar fonetik mashq vositasi bo'lishi bilan birga, xalqning milliy dunyoqarashi, madaniy qadriyatlari va kundalik hayot tarzi bilan chambarchas bog'liq til birliklari sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida tez aytilishlarning mazmuniy, strukturaviy va madaniy omillar ta'sirida shakllanishi yoritilib, ularning milliy-madaniy xususiyatlari ochib beriladi.

Abstract. This article examines the issue of linguistic and cultural conditioning of rapid utterances. Tongue Twisters are analyzed as a means of phonetic exercise, as well as language units closely related to the national outlook, cultural values and daily life of the people. In the course of the study, the formation of rapid utterances under the influence of substantive, structural and cultural factors is highlighted, and their national and cultural characteristics are revealed.

Kalit so'zlar: tez aytilish, lingvomadaniyat, xalq og'zaki ijodi, fonetik birlik, milliy madaniyat, til va madaniyat.

Keywords: Tongue Twisters, linguistic culture, folk oral creativity, phonetic unity, national culture, language and culture.

Xalqning madaniyatini, urf-odatlarini, qadriyatlarini tilda aks etish muammosi bilan bog'liq masalalarni tilshunoslikning lingvokulturologiya sohasi tadqiq etadi. Umuman, turli xalqlar, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy, ilmiy aloqalar, tilshunoslik sohasida tillarning o'zaro munosabati hamda til madaniyati va tilning milliy o'ziga xos ko'rinishlari madaniyatshunoslik o'rtasidagi alohida maxsus yo'nalishi va predmetiga ega bo'lgan yangi soha – lingvomadaniyatning yuzaga kelishiga turtki bo'ldi.

Bu haqda M.Saidova “Lingvokulturologiya” nomli ilmiy tadqiqot ishida Lingvokulturologiya tilshunoslik ilmiga xos bo'lgan qator yangi sohalaridan biri bo'lmish kommunikativ tilshunoslik va matn lingvistikasi, matnni o'rganishdagi antropotsentrik yondashuv, kognitiv tilshunoslik, pragmalingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika, etnolingvistika sohalariga oid masalalarni tahlil qilish yo'nalishidagi tadqiqot ishlari bilan chambarchas bog'liqligini¹ ta'kidlaydi. Aytish kerakki, lingvokulturologiya til va madaniyatning tutash nuqtasi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Sh.T.Maxmaraimova esa “Lingvokulturologiya” nomli o'quv qo'llanmasida

¹ Саидова М., Қўзиёв У. Лингвокультуроология. Наманган. 2017. – Б.3.

“Lingvokulturologiya – tildagi madaniy faktlar va ularning mahsuli bo‘lmish lingvomadaniyatni o‘rganuvchi fandır”² deb alohida ta’kidlaydi.

Lingvokulturologiya sohasiga XIX asrda V.Fon Gumboldt o‘zining “Tilning tuzilishi va insoniyat ma’naviy rivojiga ta’siri” nomli asari bilan tamal toshini qo‘ygan bo‘lib, til va millat xususiyatlarining munosabatlari haqida qayd etgan edi³. Tadqiqotchi o‘z ilmiy tadqiqotlarida til va madaniyatni chambarchas bog‘liqligi haqida alohida to‘xtalib, ma’lum bir etnosning madaniyati uning tilida namoyon bo‘lmasdan qolmasligini izohlaydi.

Tilning barcha leksik birliklarining tadqiqi orqali etnosning lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berish mumkin. Tadqiqotning bu qismida lingvokulturologiya sohasining turli qirralariga bag‘ishlangan ilmiy ishlarni tahlil qilib chiqamiz.

Tilshunos olim G.Ergashevaning “Ingliz va o‘zbek tillari frazeologizm va paremlarida gender aspektining qiyosiy-tipologik tadqiqi” nomli tadqiqotida ingliz va o‘zbek tillarida gender ko‘rsatkichli frazeologik birliklar hamda paremlarni qiyosiy-tipologik jihatdan kognitiv va lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilingan⁴. Olima M.Radjabovaning “Onomastik komponentli frazeologik birliklarning lingvomadaniy jihati va tarjima muammolari (ingliz, o‘zbek va rus tillari materialida)” nomli tadqiqotida onomastik komponentli frazeologik birliklarning shakllanish manbalari antik mifologiya, diniy dunyoqarash, folklor, xalqning tarixi, kundalik turmush tarzi kabi ichki hamda ekstralingvistik omillar asosida vujudga kelishi, qiyoslanayotgan tillar kesimida onomastik komponentli frazeologik birliklar tarkibi jihatidan antroponim, toponim, etnonim, zoonim hamda nomlar har bir xalqning tarixi va madaniyati bilan bog‘liqligi misollar asosida har uchala tilda onomastik komponentli frazeologik birliklarning semantik xususiyatlari tahlil qilingan⁵. Mazkur birliklar tarjimasida madaniy muloqot ta’sirida ekvivalentlik, muqobillik, obrazlilik kabi muvofiq hamda nomuvofiq munosabatlarning voqelanishi aniqlangan.

D.A.Toshevaning “Zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari” nomli dissertatsiya ishida qayd etishicha, tilda madaniyatning voqelanishi, aks etishi muayyan nutqiy vaziyatda namoyon bo‘ladi. Har qanday muloqot makon va zamonni, so‘zlovchi dunyoqarashi va individual xususiyatlarni ifoda etadi. Lingvokulturologiya fanining tadqiq manbai madaniyat elementlarini aks ettirgan lisoniy birliklardan iborat bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos urf-odat, an’ana, qadriyat, dunyoqarash hamda milliy madaniy qonuniyatlarni turli darajada ifoda etadi.

²Maxmaraimova Sh. M. Lingvokulturologiya [matn] o‘quv qo‘llanmasi. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2017. – B.23.

³Гумбольдт В.Ф. Язык и философия культуры. – Москва: Прогресс, Москва, 1985. – С.370.

⁴Эргашева Г.И. Инглиз ва ўзбек тиллари фразеологизм ва паремияларида гендер аспектининг киёсий-типологик тадқиқи. Филология фанлари номзоди дисс. –Тошкент, 2011. – 164 б.

⁵Раджабова М.А. Ономастик компонентли фразеологик birliklarнинг лингвомаданий жиҳати ва таржима муаммолари (Инглиз, ўзбек ва рус тиллари материалида). Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Бухоро, 2020. – 160 б.

Mazkur birliklar qatoriga paremalarni, muayyan mazmuniy maydon doirasida shakllanib, milliy va madaniy qarashlar asosida vujudga kelgan birliklarni kiritish mumkin⁶.

Sh.Qalandarovning “O‘zbek lingvomadaniy muhitida xalq maqollari evfemizatsiyasi” nomli tadqiqotida o‘zbek xalq maqollarida til va madaniyat mushtarakligini aks ettiruvchi evfemizmlar tahlilga tortilgan. Tadqiqotchi ishda xalq maqollarining evfemik qo‘llanishi, maqollarda evfemik mazmunni voqelantiruvchi omillar, evfemik mazmunli maqollarining badiiy-estetik vazifalari, evfemizatsiya va badiiylik, badiiy matnda maqol evfemizatsiyasi asosida nutqni individuallashtirish singari maqollar tahliliga e’tibor qaratgan⁷. Mazkur tadqiqotda dissertant, avvalo, so‘zlarning semantik strukturasini tashkil etgan semik parchalarni uchga ajratgan. O‘zbek lingvomadaniyatiga xos bo‘lgan maqollarni misollar asosida chuqur tahlilga tortgan.

Z.R.Narmuratovning “Ingliz va o‘zbek tillarida “ta’lim”, “ilm” konseptlariga oid paremalarning lingvomadaniy tadqiqi” nomli dissertatsiyasida ingliz va o‘zbek tillaridagi “ta’lim”, “ilm” konseptli paremiologik birliklarni chog‘ishtirib o‘rganish orqali ularning lisoniy-madaniy jihatdan o‘xshash va umumiy tomonlari tadqiq etilgan⁸.

Bizga ma’lumki, tamaddun taraqqiyoti bugungi davrda ko‘plab fanlar kabi tilshunoslikning ham tahlil doirasini kengaytirmoqda. Tilshunoslikda xalqning milliy qadriyatlari, madaniyat tarixi, madaniy rivoji, etnografik xususiyatlariga ega bo‘lgan har bir xalqning turmush tarzi, dunyoqarashi, **lingvomadaniyati**, madaniyati va etnik qatlamiga doir ma’lumotlar millat **taqinchoqlarida** ham o‘z aksini topadi.

Hind tadqiqotchisi N. Jeyin “Consumer Buying Behaviour With Regard to Branded and Traditional Jewellery” nomli dissertatsiya ishida zargarlik buyumlari - *marjonlar, uzuklar, bilaguzuklar, soatlar va sirg‘alar* kabi taqinchoqlarning yasaliish tarixiga to‘xtalib, zargarlik taxminan ming yil oldin suyak, tish va boshqalardan yasalgan materiallardan boshlanganligini nazariy asoslab, bugungi kunda hind xalqi uchun taqinchoqlarning o‘rni va ularning urf-odatlar bilan bog‘liq tomonlariga e’tibor qaratgan⁹.

Norsk Oldfanning “The language of jewellery” nomli kitobida voha aholisining turmush-tarzi, aholining milliy-madaniyati hisoblangan taqinchoq turlari va taqinchoqlarning kelib chiqish tarixi, taqinchoqlarning besh yuzdan ortiq nomlari

⁶ Тошева Д.А Зооним компонентли мақолларнинг лингвокультурологик хусусиятлари: Филол. фанлари фалсафа д-ри... дисс. Тошкент, 2017. – 151 б.

⁷ Qalandarov Shuhrat “O‘zbek lingvomadaniy muhitida xalq maqollari evfemizatsiyasi. Filol. fanlari falsafa d-ri... diss. – Buxora, 2021. – 135 b.

⁸ Нармуратов З.Р. Инглиз ва ўзбек тилларида таълим ва илм концептларига оид паремаларнинг лингвомаданий тадқиқи. Филол.фанлари фалсафа доктори дисс. Термез, 2022. – 129 б.

⁹ Jain N. Consumer Buying Behaviour With Regard to Branded and Traditional Jewellery. For registration to the degree of Doctor of Philosophy the IIS University. – Jaipur, 2011. – 129 p.

sanab o'tilgan hamda vo'ha aholisining taqinchoqlarga bo'lgan munosabati misollar bilan yoritib berilgan¹⁰.

Sh.Kayumovaning "Ingliz va o'zbek tillarida taqinchoq nomlarining lingvokulturologik tadqiqi" 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo'yicha filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan tadqiqotida ingliz va o'zbek tillaridagi taqinchoq nomlarining tadqiqi asosida tadqiqotning nazariy asosi aniqlangan, ushbu birliklarning lingvomadaniy aspektda ifodalanish xususiyatlarining mushtarakligi chog'ishtirilayotgan tillardagi taqinchoq nomlarining tahlillari asosida dalillangan va muayyan etnos lingvomadaniyatida taqinchoq nomlari *turli yosh doirasidagi, ya'ni, bolalik, qizlik, kelinlik va undan keyingi davr bilan bog'liq, onalar va keksa momolar taqinchoqlarining nomlari* kabi o'xshash, *mulkdor tabaqa vakillari, shahar va qishloqning oddiy fuqarolariga tegishli taqinchoqlarning nomlari* kabi farqli xususiyatlari tahlillar asosida o'rganilgan¹¹.

Ingliz tilida ham kasbga oid tez aytishlar yetarlicha va ular turli kasb egalarini ifodalab keladi. *A proper copper coffee pot.* G'arbda va Sharqda qahva iste'moli madaniy qadriyat hisoblanadi. Mis idishlar qadimgi an'anaviy oshxona buyumlaridan biri bo'lib, ayniqsa, Sharq oshxonasida keng ishlatiladi. O'zbek madaniyatida qahva unchalik keng tarqalmagan bo'lsa-da, choy ichish odati mis choynaklar bilan bog'liq.

Inglizcha: *Six slippery snails slid slowly seaward.* Salyangoz G'arb oshxonasida iste'mol qilinadi, lekin O'zbekistonda gastronomik qadriyat sifatida qabul qilinmagan. Dengizga borish – G'arb madaniyatida muhim, lekin o'zbek madaniyatida kamroq uchraydi, chunki O'zbekiston dengizga chiqish imkoniga ega emas. Ushbu tez aytish tabiat hodisalari va hayvonot olami bilan bog'langan, bu esa tabiat bilan uyg'unlikni ifodalaydi.

Inglizcha: *A chef's sharpest knives slice swiftly.* Oshpaz kasbi Sharq va G'arbda ham muhim sanaladi. O'tkir pichoq yaxshi oshpazning ajralmas qismi bo'lib, o'zbek milliy taomlari (osh, lag'mon, kabob) tayyorlashda ham katta rol o'ynaydi. Ushbu tez aytish oshxona va taom tayyorlash madaniyatiga urg'u beradi.

O'zbekcha: *Bodom bog'da bodom bo'lsa, bodom bolaga bo'lar bo'lsa, bolaga bodomni bera qol!* tez aytishining lingvomadaniy tahlili quyidagicha: Bodom o'simligi o'zbek xalqining an'anaviy meva va oziq-ovqatlaridan biri sifatida madaniy jihatdan katta ahamiyatga ega. Bu tez aytishda bodom bog'dagi meva sifatida keltirilgan bo'lib, uning o'zbek madaniyatidagi o'rni, o'simliklarning sog'lom hayotga va farovonlikka bo'lgan aloqasi ifodalanadi. Bodomning mevalari ko'pincha bayramlarda, shuningdek, mehmonlar uchun taqdim etiladigan eng mashhur va sifatli mevaning hisoblanadi. Tez

¹⁰Norske Oldfun. The language of jewellery. Kulturhistorisk museum, Universitetet Oslo. – Norway, 2021. – 394 p

¹¹ Kayumova Sh.K. Ingliz va o'zbek tillarida taqinchoq nomlarining lingvokulturologik tadqiqi. filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Termiz, 2023. – 135 p.

aytishdagi *bodom bolaga bo'lar bo'lsa* ifodasi, ota-ona yoki kattalar tomonidan bolaga bo'lgan mehrni va g'amxo'rlikni ifodalaydi. O'zbek madaniyatida bolaga mehr, yaxshi ta'lim, g'amxo'rlik va ta'lim berish juda muhim. Bu yerda bodomni bolaga berish ifodasi bolalarga mehnat va vaqt sarflash orqali yaxshilik qilishni, ularga e'tibor berishni anglatadi. *Bodomingni berib qol* iborasi esa, mehmon kutish yoki xushmuomalalikni, yordam berishni, ehson qilishni ifodalaydi. O'zbek xalqida mehmonni qadriga yetkazish, unga eng yaxshisini taqdim etish odati qadimdan mavjud. Bu ibora nafaqat iqtisodiy, balki axloqiy jihatdan ham ijobiy qadriyatlarni, bir-biriga yordam berishni va yaxshi niyatni aks ettiradi.

Bu tez aytishda bodom *boylik, sog'lik* va *yaxshi niyat* kabi qadriyatlarni ifodalaydi. Bodomni bolaga berish orqali, u ma'naviy jihatdan insonlar orasida ijobiy munosabatni kuchaytiradi. O'zbek xalqida boylik yoki yaxshi narsalarni o'zaro taqsimlash, boshqalar bilan ulashish – bu ijtimoiy normalar, bu esa yaxshilik va odamiylikni ifodalovchi an'anadir.

Bodom bog'da bodom bo'lsa, bodom bolaga bo'lar bo'lsa, bolaga bodomni bera qol! tez aytishi, o'zbek xalqining tabiatga bo'lgan mehrini, o'simliklarni va boylikni qadrlashini, shuningdek, bolalarga bo'lgan g'amxo'rlik va yordam berishni aks ettiradi. Bu orqali ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar, yaxshi niyat va samimiy munosabatlar tilga olinadi.

O'zbekcha: *Do'lana daraxtida do'lana bo'lsa, do'lanani do'stlaringga tarqat!* tez aytishining lingvomadaniy tahlili quyidagicha: Do'lana daraxti O'zbekistonning iqlimiga moslashgan o'simliklardan biri bo'lib, ko'plab hududlarda uchraydi. U o'zining mevalari bilan tanilgan, ammo bu tez aytishda do'lana daraxti nafaqat o'simlik sifatida, balki biror narsaning boyligi va millat qadriyatining ramzi sifatida ishlatiladi. Do'lana daraxtining o'zida meva va gullar mavjud bo'lib, u gullash va meva berish jarayonlari bilan qishloq hayotining muhim qismini tashkil qiladi. Bu yerda do'lana daraxtining mevalari ramziy ravishda boshqalar bilan bo'lishish kerak bo'lgan yaxshilikni ifodalaydi. *Do'lanani do'stlaringga tarqat!* iborasi esa, odatda yaxshi niyatni, odamlar o'rtasidagi yordamni va ehsonni ifodalaydi. O'zbek madaniyatida tarqatish yoki berish nafaqat moddiy narsalar bilan bog'liq, balki insonlarning bir-biriga yordam berish, yaxshi maslahatlar berish yoki bir-birining mehriga munosabatini yaxshilash kabi ma'naviy jihatlarni ham anglatadi. Bu yerda do'lana yaxshi, mehnat orqali olingan boylik yoki foydali narsadir, va uni do'stlarga tarqatish orqali ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash, mehribonlikni oshirishga undaydi. Bu tez aytishda do'lana mevasini do'stlarga tarqatish, o'zaro aloqalarni mustahkamlash va bir-birini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. O'zbek xalqida do'stlik va ijtimoiy munosabatlar juda muhim o'rin tutadi. Do'lana mevasini tarqatish orqali, bu qadriyatlarni yuqori baholash va jamiyatda birdamlikni ta'minlashning ahamiyati ta'kidlanadi. Boshqalar bilan yaxshi niyatda bo'lish, ularni qo'llab-quvvatlash va

o'zaro yordam berish o'zbek madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu tez aytish, o'zaro yordamning faqat moddiy emas, balki ma'naviy jihatlarini ham ifodalaydi. O'zbek xalqida odamlar bir-biriga yordam berishni, o'z fikrini bildirishni, bir-birining dardiga sherik bo'lishni qadrlaydilar. *Do'landa do'stlarga tarqatish* iborasi, jamiyatda ijobiy o'zgarishlar qilish, boshqalarga baxt va farovonlik olib kelish niyatini aks ettiradi. Do'landa daraxti va uning mevalari orasidagi aloqalar bu yerda shunday tasvirlanadiki, tabiat va odamlar bir-birini to'ldiradi. O'simliklar, ayniqsa mevali daraxtlar, tabiatning insonga taqdim etadigan boyliklaridir. Do'landa daraxti orqali jamiyatga foydali narsalar taqdim etish va boshqalar bilan bo'lishish jarayoni o'zbek xalqining tabiatga bo'lgan hurmatini, uning resurslaridan o'rinli foydalanishni aks ettiradi. *Do'landa daraxtida do'landa bo'lsa, do'lanani do'stlaringga tarqat!* tez aytishi o'zbek xalqining ijtimoiy va madaniy qadriyatlarini ifodalaydi. Bu yerda do'landa daraxti va uning mevalari orqali ijtimoiy birdamlik, do'stlik va o'zaro yordamning ahamiyati ko'rsatilgan. Boshqalar bilan yaxshilik qilish, o'zaro qo'llab-quvvatlash va farovonlikni tarqatish orqali o'zbek madaniyatida ko'plab ijobiy qadriyatlar aks etadi.

Xulosa qilib aytganda, tez aytilishlar lingvomadaniy jihatdan shartlangan til birliklari bo'lib, ularning shakllanishi va mazmuni xalqning milliy madaniyati, hayot tarzi va fonetik tizimi bilan chambarchas bog'liqdir. Tez aytilishlarni lingvomadaniy nuqtai nazardan o'rganish tilning madaniy funksiyasini chuqurroq anglash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Саидова М., Кўзиев У. Лингвокультурология. Наманган. 2017. – Б.3.
2. Maxmaraimova Sh. M. Lingvokulturologiya [matn] o'quv qo'llanmasi. – Toshkent: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2017. – B.23.
3. Гумбольдт В.Ф. Язык и философия культуры. – Москва: Прогресс, Москва, 1985. – С.370.
4. Эргашева Г.И. Инглиз ва ўзбек тиллари фразеологизм ва паремияларида гендер аспектининг киёсий-типологик тадқиқи. Филология фанлари номзоди дисс. –Тошкент, 2011. – 164 б.
5. Раджабова М.А. Ономастик компонентли фразеологик birliklarнинг лингвомаданий жиҳати ва таржима муаммолари (Инглиз, ўзбек ва рус тиллари материалида). Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Бухоро, 2020. – 160 б.
6. Тошева Д.А Зооним компонентли мақолларнинг лингвокультурологик хусусиятлари: Филол. фанлари фалсафа д-ри... дисс. Тошкент, 2017. – 151 б.
7. Qalandarov Shuhrat “O'zbek lingvomadaniy muhitida xalq maqollari evfemizatsiyasi. Filol. fanlari falsafa d-ri... diss. – Buxora, 2021. – 135 b.

8. Нармуратов З.Р. Инглиз ва ўзбек тилларида таълим ва илм концептларига оид паремаларнинг лингвомаданий тадқиқи. Филол.фанлари фалсафа доктори дисс. Термез, 2022. – 129 б.
9. Jain N. Consumer Buying Behaviour With Regard to Branded and Traditional Jewellery. For registration to the degree of Doctor of Philosophy the IIS University. – Jaipur, 2011. – 129 p.
10. Norske Oldfunn. The language of jewellery. Kulturhistorisk museum, Universitetet Oslo. – Norway, 2021. – 394 p
11. Kayumova Sh.K. Ingliz va o'zbek tillarida taqinchoq nomlarining lingvokulturologik tadqiqi. filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Termiz, 2023. – 135 p.
12. Ҳоди Зариф. Ўзбек фольклори хрестоматияси”. – Тошкент. 1941 йил.
13. Мирзаев Т., Сафаров О., Д.Ўраевалар томонидан тузилган “Ўзбек халқ оғзаки ижоди хрестоматияси. Тошкент, Алоқачи, 2008. – 560 б.
14. Абдуллаев И. “Инглизча шеърлар, топишмоқлар ва тез айтишлар”. “Истиқлол Нури” нашриёти, Тошкент - 2014 йил, 32 б.
15. Мадияров И.Б. Ўзбек ва қорақалпоқ халқ тез айтишлари типологияси. Филол.фанлари фалсафа доктори дисс. Тошкент, 2021. – 152 б.
16. Ken Parkin. Anthology of British Tongue Twisters. London, Samuel French Ltd. 1969. – 64 p.
17. Perkoff, Gerald J. Tongue Twisters and How to Use Them. London, Wiley-Blackwell. 2001. – 178 p.